

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

DALIYEVA MADINA XABIBULLAYEVNA

**INGLIZ, O‘ZBEK VA RUS TILLARI LINGVISTIK TERMINLARIDA
POLISEMIYANING KOGNITIV MODELLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

UO'K: 811.111'373.46
811.512.133'373.46
811.161.1'373.46

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Science (DSc)

Daliyeva Madina Xabibullayevna

Ingliz, o'zbek va rus tillari lingvistik terminlarida
polisemiyaning kognitiv modellari..... 3

Далиева Мадина Хабибуллаевна

Когнитивные модели полисемии лингвистических терминов в
английском, узбекском и русском языках..... 33

Daliev Madina Khabibullaevna

Cognitive Models of Linguistic Terms' Polysemy
In English, Uzbek And Russian Languages..... 67

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 72

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

DALIYEVA MADINA XABIBULLAYEVNA

INGLIZ, O‘ZBEK VA RUS TILLARI LINGVISTIK TERMINLARIDA
POLISEMIYANING KOGNITIV MODELLARI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertasiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.DSc/Fil783 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Boqiyeva Gulandom Hisomovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Qodirova Fazilat Shukurovna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Arustamyan Yana Yuryevna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Muxamedova Saodat Xudayberdiyevna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat chet tillar instituti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «9» oktyabr soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 21a. Tel.: (998 71) 230-12-91, (99871) 230-12-92; e-mail: www.uzswlu_info@mail.ru)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1024 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 21a. Tel.: (99871) 230-12-91, (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «24» sentabr kuni tarqatildi.

(2024-yil «24» sentabr dagi 25 raqamli reyestr bayonnomasi)



I.M. Tuxtasinov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, ped.f.d., professor

X.B. Samigova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

J.A. Yakubov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,
professor

KIRISH (Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida terminlarni nomlash jarayonida polisemiyaning namoyon bo'lishi terminologik variativlik, terminologiyani standartlashtirish va unifikatsiyasining oldini olish uchun polisemiyaning tartibga solish muhim ahamiyat kasb etadi. Lingvistik terminlarning polisemiya nafaqat nazariy nuqtayi nazardan, balki uni turli tizimli tillarning qiyosiy tadqiqatlarida amaliy o'rganish jihatidan ham jahonning yetakchi ilmiy maktablarida bir qator xalqaro yo'nalishlar va tadqiqot uslublarini shakllangan. Shu munosabat bilan, ingliz, o'zbek va rus tillaridagi lingvistik terminlar ko'p ma'noliligining kognitiv mexanizmlarini qiyosiy-tipologik tahlil qilish leksikaning ushbu qatlamining universal va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi, bu esa terminologiya va umumiy til nazariyasini rivojlantirishga beqiyos hissa qo'shadi. Tipologik jihatdan turli tizimli, xususan, ingliz, o'zbek va rus tillaridagi lingvistik terminlar polisemiya kognitiv mexanizmlarini kompleks tadqiq etishning dolzarbligi va ilmiy ahamiyati samarali kasbiy muloqotning asosiy sharti bo'lgan lingvistik terminlarni adekvat tushunish va qo'llashning muhimligi bilan belgilanadi.

Zamonaviy dunyoning globallasuvi sharoitida tilshunoslik sohasida polisemiya tildagi semantik o'zgarishlarni o'rganishning eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Turli tizimga mansub tillardagi polisemiyaning kognitiv jihatlarini o'rganish esa lingvistik tafakkur mexanizmlarini tadqiq qilishda yangi istiqbollarni ochadi. Tilshunoslik atamalarining polisemiya qiyosiy terminologiya va kognitiv tilshunoslikning eng kam o'rganilgan sohalaridan biri sanaladi. Turli tizimlardagi tillarda polisemiyaning yuzaga kelishida kognitiv modellardagi tipologik farqlarga yetarlicha e'tibor bermaslik ushbu hodisani yanada chuqur tahlil qilish, uning tizimli xususiyatlari va tillararo muvofiqliklarini aniqlashni talab etadi.

O'zbek tilshunosligida lingvistik terminlar polisemiya terminologik lug'atning o'ziga xos xususiyatlarini tushunishda muhim bo'lishiga qaramay, kam o'rganilgan muammo bo'lib qolmoqda. Zero, "ushbu masalalarning asosiy yechimi ilm-fan va innovatsiyalar sohasida yetakchi mamlakatlar qatoridan o'rin olish, to'rtinchi sanoat inqilobi davrida xalqaro raqobatbardoshlikka erishish, to'plangan institutsional muammolarning yangi yechimlarini izlab topish, shuningdek, globallasuv tufayli yuzaga kelayotgan bahsli masalalarni hal qilishdan iborat bo'lishi lozim"¹. Zamonaviy ta'lim va ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarida yetakchi xorijiy oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan hamkorlikni mustahkamlash, dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini takomillashtirish, xalqaro standartlarga mos, ingliz, o'zbek va rus tillarida bimalol ish yurita oladigan, yuqori malakali kadrlar tayyorlash muammolarining mavjudligi jahon andozalari darajasidagi ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishni taqozo qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son, 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmonlari hamda 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son, 2024-yil 27-iyundagi “Yoshlarni xorijiy tillarga o‘qitish tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-239-son qarorlari hamda mazkur sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, ma‘naviy ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Terminologik birliklarning ko‘pma‘noliligi sohasiga oid ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalari, jumladan, Kembrij universiteti, Oksford universiteti, Edinburg universiteti, Lankaster universiteti (Buyuk Britaniya); Prinston universiteti, Chikago universiteti, Rutgers universiteti, Kaliforniya universiteti, Berkeley, Michigan universiteti (AQSh); Bordo universiteti (Fransiya); Amsterdam universiteti (Niderlandiya); Moskva davlat universiteti, Rossiya davlat gumanitar universiteti, Perm universiteti (Rossiya), O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Samarqand davlat chet tillar instituti (O‘zbekiston) da olib borilmoqda.

Dunyo tilshunosligida ingliz, o‘zbek va rus tillari lingvistik terminlari tadqiqiga doir muhim xulosalar chiqarilgan: terminologik ko‘pma‘nolilik tahliliga kognitiv-lingvistik yondashuvlar ishlab chiqilgan (Edinburg universiteti, Buyuk Britaniya); madaniyat va terminologiyadagi leksik ko‘pma‘nolilik o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlangan (Kembrij universiteti, Buyuk Britaniya); terminologik ko‘pma‘nolilikni idrok etish va qayta ishlashning psixolingvistik jihatlari tahlil qilingan (Chikago universiteti, AQSh); grammatika va til tuzilmalarining kognitiv jarayonlar bilan aloqasini o‘rganish asosida grammatik birliklar polisemiyasi turli

² Sharh universitetlarning veb-saytlaridagi ma‘lumotlar asosida taqdim etildi: <https://www.cam.ac.uk/>, <https://www.ox.ac.uk/>, <https://www.ed.ac.uk/>, <https://www.lancaster.ac.uk/>; <https://www.princeton.edu/>, <https://www.uchicago.edu/>, <https://www.rutgers.edu/>, <https://www.berkeley.edu/>, <https://umich.edu/>; <https://www.u-bordeaux.fr/>; <https://www.uva.nl/en/>; <https://msu.ru/en/>; <https://www.rsuh.ru/>; <http://en.psu.ru/>; <https://tsuos.uz/> <https://www.uzswlu.uz/ru/>, <https://samdchti.uz/ru/>.

yondashuvlar prizmasi orqali aniqlangan (Prinston universiteti, AQSh); terminologik ko‘pma‘nolilik va leksikografiyaning integral tavsifi nazariyasi ishlab chiqilgan (Moskva davlat universiteti, Rossiya); terminlarni metaforalash mexanizmlari va ularning terminologik ko‘pma‘nolilik rivojlanishiga ta‘siri o‘rganilgan (Perm universiteti, Rossiya); lingvistik terminlarning ko‘pma‘noliligini qiyosiy va tipologik jihatdan o‘rganish prinsiplari va metodlari belgilangan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, O‘zbekiston) va boshqalar.

Zamonaviy fanda tadqiqotning ustuvor yo‘nalishlari muammoning quyidagi jihatlarini o‘rganishga qaratilgan: yangi ma‘nolar yaratilishidagi kognitiv jarayonlarni o‘rganish; terminlarning semantik tarmoqlarini modellashtirish; terminologiya dinamikasining korpus tadqiqotlari va boshqalar.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Zamonaviy tilshunoslikda polisemiya masalalari U. Eko, A. Duranti, Ch. J.Fillmor, J. Layons, G. Lakoff va M. Jonson, E.P. Belyaeva, Y.I. Gurova, G.I. Kustova, A. Xojiyev, M. Mirtojdiyev³ kabi mashhur olimlarning asarlarida yoritilgan.

Polisemiya bo‘yicha tadqiqotlar, asosan, umumiste‘moldagi leksika va maxsus terminologiyaga bag‘ishlangan. Muhimi polisemiya hodisasi bir-biriga bog‘liq omonimiya, sinonimiya va antonimiya kabi hodisalardan ajratilgan. Tilshunoslik terminlarining ko‘pma‘noliligi muammolariga bevosita aloqador tadqiqotlar ko‘p emas. Xususan, N.A. Kazak, N.A. Vasilyeva⁴ lingvistik terminologiyadagi ko‘pma‘nolilik hodisasini tahlil qilib, evrisememiya va polisemiya kabi o‘zaro bog‘liq hodisalarni farqlash mezonlarini aniqlashgan. T.I. Galeyeva, S.X. Kaziahmedova, E.A. Yanova⁵ ko‘pma‘nolilik hodisasini terminlarning ko‘pma‘noliligi bilan bog‘liq leksik qiyinchiliklarni yengishda kontekstni hisobga olishning ahamiyati nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqadilar.

Lingvokognitiv aspektda til birliklarining polisemiyasi: P. Din, R. Temmerman, P. Pauz, A. Bol‘ts, M. Egg, Ye.P. Belyaeva, I.G. Kustova, L.M. Lesheva⁶ va boshqalarning tadqiqot obyekti bo‘lgan. Xususan, P. Din polisemiyani

³ Эко У. Отсутствующая структура: введение в семиологию. – СПб.: Симпозиум, 2004. – 544 с.; Duranti A. Linguistic Anthropology. – Cambridge: Cambridge University Press, 1997. – 442 p.; Fillmore Ch.J. Frame semantics. – In: Linguistics in the Morning Calm, The Linguistic Society of Korea. – Seoul: Hanshin, 1982. – P. 111-137; Лайонз Дж. Лингвистическая семантика. – М.: Языки славянской культуры, 2003. – С.86-102; Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 276 p.; Беляева Е.П. Когнитивные аспекты полисемии. – Архангельск, 2010. – 120 с.; Гурова Ю.И. Явление полисемии в английском языке и пути ее развития. – URL: www.gramota.net/materials/2/2015/8-1/14.html; Кустова Г.И. Типы производных значений и механизмы языкового расширения: монография. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 472 с.; Лещёва Л.М. Лексическая полисемия в когнитивном аспекте. – М.: Языки славянской культуры; Знак, 2014. – 256 с.; Хожиев А. Семасиология // Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 198-292; Миртожидиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент: Фан, 1984. – 135 б.

⁴ Казак Н.А., Васильева Н.А. Явление полисемии и ее виды в терминологии // Universum: филология и искусствоведение, 2018. – № 10 (56). – С. 28-31.

⁵ Галеева Т.И., Казиахмедова С.Х., Янова Е.А. Явление полисемии как феномен лингвистики // Вестник Удмуртского университета. Серия “История и филология”. 2017. – Вып. 27. – № 5. – С. 784-794.

⁶ Temmerman R. Towards new ways of terminology description: the sociocognitive-approach. – Amsterdam: John Benjamins Pub, 2000. – 258 p.; Dean P. Polysemy and cognition // Lingua, 1988. – № 75. – P. 325-361; Pause P., Boltz A., Egg M. A Two-Level Approach to polysemy // Current issues in linguistic theory: lexical knowledge in the organization of language. – Amsterdam; Philadelphia, 1995. – P. 247-281; Беляева Е.П. Когнитивные аспекты полисемии. – Архангельск, 2010. – 120 с.; Кустова Г.И. Типы производных значений и механизмы языкового расширения: монография. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 472 с.; Лещёва Л.М. Лексическая полисемия в когнитивном аспекте. – М.: Языки славянской культуры; Знак, 2014. – 256 с.

soʻzlarning turli maʼnolarini kontekstga qarab talqin qilish va tasniflashga imkon beradigan kognitiv tuzilmalarning aksi sifatida tadqiq etgan⁷. R. Temmerman terminologiyaning ijtimoiy-kognitiv nazariyasini ishlab chiqqan boʻlib, unda terminlar tushunchalarni belgilash uchun oddiy til birliklari sifatida emas, balki tushunish birliklari sifatida koʻrib chiqiladi⁸. P. Pauz, A. Boltz, M. Egg polisemantik soʻzlarning ikki darajali yondashuvini taklif qilishdi, bu ularning konseptual tuzilmasining ikki darajasi: yadroviy maʼno (core meaning) va xulosa qilingan maʼnolar darajasi (elaborated meanings)⁹ ni aniqlashga qaratilgan.

Oʻzbek tilshunosligida keyingi yillarda koʻpmaʼnolilik hodisasini turli fanlar terminologiyasi kesimida oʻrganishga boʻlgan qiziqish kuchaygan (A. Xojiyev, M. Mirtojiev, Sh. Iskandarova, I.M. Yoqubov, G. Muxammadjonova, Sh.A. Abdu-raxmonov, E.R. Hasanov, M.X. Dalieva, O.Y. Yusupov, N. Xudayberganova, S.J. Raximova¹⁰ va boshqalar).

Binobarin, ingliz, oʻzbek va rus tillarida lingvistik terminlarning polisemiyaning oʻrganish darajasi, ayniqsa, kognitiv jarayonlar va terminlar koʻpmaʼnoliligini yaratish modellari nuqtayi nazaridan yetarlicha tadqiq qilinmay qolmoqda. Turli tizimli tillar materiallarida polisemiyaning lingvokognitiv jihatdan oʻrganishning oʻziga xos xususiyati mental tuzilmalar va madaniy xususiyatlarning xilma-xilligidadir. Bu esa turli til tizimlarida polisemiyaning kognitiv modellari va xususiyatlarini oʻrganish uchun oʻziga xos shart-sharoit yaratadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Tadqiqot Oʻzbekiston davlat jahon tillari universitetining “Ingliz tili mutaxassisligi fanlaridan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va joriy etish” mavzusidagi I-204-4-5-sonli innovatsion loyiha doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz, oʻzbek va rus tillari terminologik tizimlarida polisemiyaning shakllanishini belgilovchi kognitiv mexanizmlar va omillarni

⁷ Dean P. Polysemy and cognition // *Lingua*, 1988. – № 75. – P. 325-361.

⁸ Temmerman R. Towards new ways of terminology description: the sociocognitive-approach. – Amsterdam: John Benjamins Pub, 2000. – 258 p.

⁹ Pause P., Boltz A., Egg M. A Two-Level Approach to polysemy // *Current issues in linguistic theory: lexical knowledge in the organization of language*. – Amsterdam; Philadelphia, 1995. – P. 266.

¹⁰ Ҳоҗиев А. Семасиология // *Ўзбек тили лексикологияси*. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 198-292; Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент: Фан, 1984. – 135 б.; Искандарова Ш. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайdonи): Филол. фанл. докт... дисс. афтореф. – Тошкент, 1998. – 45 б.; Якубов И.М. Анализ эквивалентности лингвистических терминов русского и узбекского языков: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1991. – 22 с.; Мухаммаджонова Г. Истеъмол доирасига кўра ўзбек тили лексикаси // *Ўзбек тили лексикологияси*. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 11-40; Abdurahmanov Sh.A. Polisemiya va uning matn tuzilishidagi oʻrni // *НамДУ илмий ахборотномаси*. – НамДУ, 2019. – № 8. – В. 269-274; Хасанов Э.Р. К вопросу полисемии в разносистемных языках (на примере узбекского и русского языков) // *Молодой ученый*. – 2017. – № 12 (146). – С. 658-659; Далеева М.Х. Полисемия лингвистических терминов в разносистемных языках (на материале английского, узбекского и русского языков): Дисс. ... докт. (PhD) филол. наук. – Ташкент, 2022. – 144 с.; Валиев Т.Қ. Ўзбек тили йўлсозлик терминларининг структур-семантик хусусиятлари ва лексикографик талқини: Филол. фанл. бўйича фалс. докт. (PhD) дисс. афтореф. – Самарқанд, 2018. – 49 б.; Юсупов О.Я. Инглиз ва ўзбек тилларидаги лексик дублетларнинг функционал-семантик ва лингвокультурологик тадқиқи: Филол. фанл. бўйича фалс. докт. (PhD) дисс. афтореф. – Самарқанд, 2020. – 62 б.; Xudayberganova N. Terminological Relations with Theory as the Emergence of Ambiguous Manifestations of Linguistic Terms // *Proceedings of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan*, 2021. – Т. 1. – № 1. DOI: 10.47100/CONFERENCES.VIII.1037; Рахимова С.Ж. Ўзбек тили фразеологик полисемиясининг лексикографик талқини муаммолари // *Таълим ва инновацион тадқиқотлар*, 2021. – № 4. – Б. 262-268.

o'rganish asosida lingvistik terminlar polisemiyasining kognitiv modellarini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

polisemiya va so'z ma'nolarini kognitiv modellashtirishni o'rganishga bag'ishlangan kognitiv lingvistika bo'yicha tadqiqotlarning nazariy tahlilini amalga oshirish;

lingvistik terminlarning ko'pma'noliligini kognitiv tilshunoslik kategoriyasi sifatida asoslash;

ingliz, o'zbek va rus tillaridagi ko'p ma'noli lingvistik terminlar semantik maydonlarining strukturaviy xususiyatlarini aniqlash va tavsiflash;

qiyoslanilayotgan tillardagi lingvistik terminlar polisemiyasining kognitiv modellarini shakllantirishga ta'sir etuvchi intralingvistik va ekstralingvistik omillarni ochib berish;

o'rganilayotgan tillarning har biriga xos lingvistik terminlar ko'pma'noliligi asosida yotuvchi: radial kategoriyalash, metaforik proeksiya, metonimiya, konseptual integratsiya (blending theory), konseptual domen, ssenariy va freymlarning asosiy kognitiv modellarini tahlil qilish;

lingvistik terminlar ko'pma'noliligini kognitiv modellashtirishning har bir til uchun universal va o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini aniqlash;

qiyoslanayotgan tillardagi lingvistik terminlar ko'pma'noliligining kognitiv modellarini amalga oshirish qonuniyatlarini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz, o'zbek va rus tillaridagi ko'p ma'noli lingvistik terminlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz, o'zbek va rus tillaridagi lingvistik terminlar polisemiyasi asosidagi kognitiv modellar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida lingvistik tavsif, qiyosiy metod, komponent, statistik, kontekstual, kognitiv modellashtirish, kognitiv talqin usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

prototiplar nazariyasi va radial kategoriya modeliga asoslanib, polisemiya asosiy (bosh ma'no) va periferiya (hosila ma'nolar), prototip effektlarga asoslangan ko'p ma'noli termin ichidagi ma'nolar iyerarxiyasiga ega bo'lgan kognitiv kategoriya ekanligi ilmiy asoslangan;

lingvistik termin polisemiyasining kognitiv modeli uning turli ma'nolarini tilshunoslar ongida ma'lumotlarni tizimlashtirish mexanizmlarini aks ettiruvchi va kontekstning rolini hisobga olgan holda terminning ma'nosini tanlash umumiy o'zak bilan ma'nolarni bog'lashning tarmoqlangan tuzilmasi sifatida tavsiflashi isbotlangan;

ko'p ma'noli terminning turli ma'nolari uni idrok etish va aniqlashni ta'minlovchi semantik yadro atrofida birlashishini aniqlash orqali semantik yadroning shakllanishi idrok etish, konsepsiyalash va turkumlashtirishning kognitiv jarayonlariga bog'liq ekanligi asoslangan;

lingvistik terminlar polisemiyasining kognitiv modellari shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan intralingvistik (metafora, metonimiya, kontekstli disambiguatsiya) va ekstralingvistik omillar (kontekst, lingvistik konvensiyalar,

kognitiv imkoniyatlar, tilning tarixiy rivojlanishi va ijtimoiy-madaniy omillar) aniqlangan;

qiyoslanayotgan tillardagi lingvistik terminlar ko'p ma'noliligining kognitiv modellarini ochib berishda ko'p ma'noli terminlarni madaniy-lingvistik o'ziga xoslik nuqtayi nazaridan idrok etish va talqin qilish orqali metaforizatsiya va metonimiya mexanizmlarining o'xshashligi hamda ma'nolarning tarmoqlanish darajasidagi o'ziga xos farqlari metafora asosidagi ko'chishlarni aks ettiruvchi qonuniyatlar asosida aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“O‘zbek, ingliz va rus tillaridagi ko‘p ma‘noli lingvistik terminlar lug‘ati” ning elektron dasturi ishlab chiqilgan;

to‘plangan nazariy va amaliy materiallar asosida kognitiv-lingvistik yondashuvni an’anaviy semantik tahlil usullari bilan uyg‘unlashtirishga asoslangan turli tizimdagi tillarda ko‘pma‘nolilikning kognitiv modellarini tahlil qilish va taqqoslash metodologiyasi ishlab chiqilgan;

lingvistik terminologiyada tadqiqot sohalari tasnifi kengaytirilgan, terminlarni tizimlashtirishning qo‘shimcha mezonlari yoritilgan;

turli tizimli tillarda lingvistik terminlar polisemiya sinfining kognitiv modellarini tahlil qilish algoritmi yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda ilmiy-nazariy asos, metodologiya va tadqiqot metodikasiga asoslanganligi, yangi muammolar aniqlanganligi va uni hal qilish vazifalari qo‘yilganligi, tadqiqot natijalarining dissertatsiya ishining nazariy qoidalariga muvofiqligi, turli manbalardan yetarli miqdorda misollar to‘planganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ko‘pma‘nolilik kognitiv nazariyasi rivojiga hissa qo‘shilgani, uni ilgari shu tarzda o‘rganilmagan tillarda ko‘pma‘nolilik mexanizmlarini o‘rganish tufayli to‘ldirilgani bilan, shuningdek, turli tizimli tillarda ko‘pma‘nolilikning yuzaga kelish qonuniyatlari va xususiyatlarining izohini kengaytirgani, ko‘p ma‘noli lingvistik terminlarning ma‘nolarini kognitiv modellashtirish metodologiyasi ishlab chiqilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot natijalari va xulosalaridan oliy o‘quv yurtlarining o‘quv jarayonida ma‘ruza va seminarlar, umumiy, ingliz, rus, o‘zbek va qiyosiy tilshunoslik, leksikologiya, stilistika, kognitiv lingvistika fanlari bo‘yicha maxsus kurslarni ishlab chiqish va o‘tkazishda, dissertatsiyalar, monografiyalar, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar yozishda, maxsus lug‘atlar tuzishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz, o‘zbek va rus tillari lingvistik terminlarida polisemiyaning kognitiv modellari mavzusida olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

prototiplar nazariyasi va radial kategoriya modeliga asoslanib, polisemiya asosiy (bosh ma‘no) va periferiya (hosila ma‘nolar), prototip effektlarga asoslangan ko‘p ma‘noli termin ichidagi ma‘nolar iyerarxiyasiga ega bo‘lgan

kognitiv kategoriya to'g'risidagi xulosalaridan Andijon davlat universitetida 2021-2023-yillarda amalga oshirilgan IL-40210421Z-son "O'zbek tilidagi lingvistik ensiklopedik elektron lug'at" loyihasi doirasida darsliklar va elektron resurslar ishlab chiqishda qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 9-fevraldagi 02/17-428-son ma'lumotnomasi). Natijada, loyiha davomida yaratilgan darsliklar va elektron resurslar mazmunan boyitilgan;

lingvistik termin polisemiyasining kognitiv modeli uning turli ma'nolarini tilshunoslar ongida ma'lumotlarni tizimlashtirish mexanizmlarini aks ettiruvchi va kontekstning rolini hisobga olgan holda terminning ma'nosini tanlash umumiy o'zak bilan ma'nolarni bog'lashning tarmoqlangan tuzilmasi sifatida tavsiflashiga oid xulosalaridan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpog'iston gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining FA-F-1-005-sonli "Qoraqalpoq folklori va adabiyotshunoslik tarixini tadqiq etish" innovatsion loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpog'iston Gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 16- martdagi 87/1-son ma'lumotnomasi). Natijada, loyiha bo'yicha tayyorlangan monografiya mazmuni boyitilgan hamda xulosalar mualliflar va shoirlarning nasr va she'riy asarlarini lingvistik tadqiq etishda muhim manba bo'lib xizmat qilgan;

ko'p ma'noli terminning turli ma'nolari uni idrok etish va aniqlashni ta'minlovchi semantik yadro atrofida birlashishi; semantik yadroning shakllanishi idrok etish, konsepsiyalash va turkumlashtirishning kognitiv jarayonlariga asoslanganligiga doir xulosalardan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2022-2024-yillar uchun AQSH Davlat departamenti va AQSH elchixonasi bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan SUZ80021GR3106-sonli "The English Access Microscholarship Program" mavzusidagi innovatsion loyihasi doirasida "Oliy va o'rta maxsus tizim jarayonlarini modernizatsiya qilish va kompyuter savodxonligini oshirish" dasturida foydalanilgan (O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2024-yil 6-martdagi 1/152-son ma'lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida yaratilgan darsliklar va elektron resurslarning mazmuni boyitilgan;

lingvistik terminlar polisemiyasining kognitiv modellari shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan intralingvistik (metafora, metonimiya, kontekstli disambiguatsiya) va ekstralingvistik omillar (kontekst, lingvistik konvensiyalar, kognitiv imkoniyatlar, tilning tarixiy rivojlanishi va ijtimoiy-madaniy omillar) to'g'risidagi xulosalar Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida amalga oshirilgan A-OT-2021-419-sonli "Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishni nazorat qilishning uch tomonlama rejasini amalga oshirish (Pre-school PDP)" mavzusida innovatsion loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 20-martdagi 4/17-20/3-129-son ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu amaliy loyiha doirasida o'tkazilgan ilmiy seminarlar materiallari, shuningdek, yaratilgan platforma manbalari, o'quv qo'llanmalari mazmunan boyitilgan;

qiyoslanayotgan tillardagi lingvistik terminlar ko'pma'noliligining kognitiv modellari yuzaga kelishida ko'p ma'noli terminlarni madaniy-lingvistik o'ziga xoslik nuqtayi nazaridan idrok etish va talqin qilishdan kelib chiqqan holda metaforizatsiya va metonimiya mexanizmlarining o'xshashligini, ma'nolarning tarmoqlanish darajasidagi o'ziga xos farqlarni va metafora asosidagi ko'chishlarni aks ettiruvchi qonuniyatlarga oid tadqiqot natijalari va xulosalaridan mintaqaviy tashkilotlar tadbirlaridagi og'zaki va yozma tarjimalarda madaniy meros bilan bog'liq terminlarni tadqiq etish jarayonida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2024-yil 18-maydagi 02-13/1899-son ma'lumotnomasi). Natijada, ular tadbirlar kontentini yaratishda muhim manba bo'lib xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 36 ta ilmiy ish nashr etilgan, shu jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta ilmiy maqola, shundan 12 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 266 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, metodlari, ishning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, nazariy va amaliy ahamiyati, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, ishning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, maqsadi, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, aprobatsiyasi, joriylanishi, e'lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Polisemiya lingvistik terminologiyaning o'rganish obyekti sifatida”** deb nomlangan birinchi bobida lingvistik terminologiya muammolari ko'pma'nolilik prizmasi orqali o'rganilib, lingvistik terminlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning ko'pma'noliligi va zamonaviy tilshunoslikda ko'pma'nolilikning konseptual jihatlari ko'rib chiqilgan.

Lingvistik terminologiya tilshunoslik sohasida til hodisalarini aniq va uzviylikda ifodalash uchun qo'llaniladigan terminlar yig'indisidir. Uning asosiy maqsadi ilmiy-tadqiqot va akademik munozaralar jarayonida lingvistik ma'lumotlarni shakllantirish, adekvat idrok etish va bir ma'noda talqin qilish uchun zarur bo'lgan ilmiy tilni standartlashtirish orqali tilshunos olimlar o'rtasida samarali va to'g'ri axborot almashinuvini, lingvistik hodisalar, uzatilgan g'oyalar va tushunchalarning o'ziga xosligini ta'minlashdan iborat. Lingvistik

terminologiya tilshunoslikda o'rganilayotgan obyekt – tilning o'ziga xos xususiyati bilan ham, uni tahlil qilishdagi turlicha yondashuvlar bilan ham belgilanadigan qator jihatlarga ega. Xususan, unga tizimlilik va komplekslilik xos, chunki u fonetikadan pragmatikaga qadar til o'rganishning barcha jihatlarini, shuningdek, tilning o'zini uning vositalari bilan tavsiflash bilan bog'liq nazariy yukni qamrab oladi.

Lingvistik terminologiya – subtizimlar tizimi (fonetika va fonologiya, termin yasalishi, morfologiya, sintaksis, stilistika terminlari) sanaladi¹¹, chunki u til hodisalarini tavsiflash va tahlil qilish uchun qo'llaniladigan kompleks va iyerarxik jihatdan tartibga solingan terminlar majmuyidir. Ushbu subtizimlarning har biri bir-biriga o'zaro ta'sir qiladi; ularning doirasida terminlar kesishadi, terminlarning ma'nolari va talqinlari ular qo'llangan kontekstga qarab, o'zgarishi mumkin. Vaholanki, bu tasnif lingvistik terminlar turlarining butun doirasini to'liq qamrab ololmaydi, faqat tilning daraja iyerarxiyasi shartlari bilan cheklanadi. Tilni sinxron va diaxroniyada, zamonaviy tilshunoslikning yangi yo'nalishlarida va h.k. o'rganish uchun ham terminlar mavjud. Shunday qilib, lingvistik terminologiya turli subtizimlardan tashkil topgan makrotizim bo'lib, ularning har biri tilning muayyan jihatlari va undan foydalanish uchun javob beradi. Shuning uchun ham doimo lingvistik terminologiya deyilganda, lingvistik terminlar tizimi nazarda tutiladi.

Lingvistik terminologiya bo'yicha tadqiqotlar turli yo'nalishlarda olib borilmoqda. L.N. Utkina terminlarning strukturaviy-semantik xususiyatlari bilan bog'liq ushbu sohadagi terminlarni o'rganishning bir nechta asosiy tarmoqlarini ajratadi: konseptual munosabatlar va tezaurus tavsifi; aniq yo'nalishlar va mualliflarning terminologik tizimlari; tarixiy davrlarning lingvistik terminologiyasi; terminlarning tipologik tadqiqotlari va tasniflari; terminologiyaning alohida bo'limlarini tadqiq qilish; terminlarning milliy va xalqaro jihatlari; leksikografik reprezentatsiya¹².

Fikrimizcha, lingvistik terminologiyani o'rganish sohalarining bu tasnifini yana bir qancha yo'nalishlar, masalan, terminlarning funksional jihati bilan to'ldirish zarur. Jumladan, L.N. Utkinaning tadqiqotlari lingvistik terminlarning semantik strukturadagi o'zgarishlar va ularning funksional yuklamalarini kognitiv fanda o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, buning natijasida, an'anaviy tilshunoslik terminlari ma'nolarining kengayishi va chuqurlashishi, miqdorining ortishi, gumanitar fanlarda umumiy ilmiy va fanlararo terminlar, kognitiv fanda terminlarning semantik ko'lami va funksional yukining ozgarishi kuzatiladi¹³. Shuningdek, til tadqiqotining tizimli tomoni alohida e'tiborga loyiqdir. E.V. Krapivnik yozganidek, terminologik tizimlilik ham lingvistik, ham tildan

¹¹ Алиева П.М. Состояние лингвистической терминологии в современном русском языке: 2001-2011 гг.: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ставрополь, 2011. – С. 13.

¹² Уткина Л.Н. Функциональные аспекты лингвистической терминологии в разных подходах к изучению языка: на материале англоязычной лингвистической литературы: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Тула, 2001. – С. 4.

¹³ Уткина Л.Н. Функциональные аспекты лингвистической терминологии в разных подходах к изучению языка: на материале англоязычной лингвистической литературы: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Тула, 2001. – С. 4.

tashqaridagi omillarga asoslanadi¹⁴. Bu, bir tomondan, til leksik tarkibining tizimlilik bilan izohlansa, ikkinchi tomondan, tizimlilikdan zamonaviy fanda metodologik asos sifatida foydalanilishi bilan izohlanadi.

Funksional va tizimli jihatlaridan tashqari, L.N. Utkinanining lingvistik terminlarni o'rganish yo'nalishlari tavsifini kognitiv jihat bilan ham to'ldirish kerak. Bu yondashuv terminologiyaning bilim va tafakkur rivojlanishidagi ahamiyatini o'rganadi¹⁵. Binobarin, terminologiyadagi kognitiv tendensiya terminlarni nafaqat lingvistik birliklar, balki ilmiy kontekstdagi bilish va tafakkur quroli sifatida ham ko'rib chiqadi va shu orqali til, bilish va voqelikni idrok etish o'rtasidagi munosabatlarga urg'u beruvchi tilshunoslikdagi kengroq yo'nalishni aks ettiradi. Shu munosabat bilan lingvistik terminlar bir qator kognitiv funksiyalarni bajaradi, ularning asosiylari konseptualizatsiya va turkumlashtirish, aloqa jarayonida bilimlarni uzatish, ilmiy kontekstda fikrlash jarayonlarini shakllantirish va rivojlantirishdir.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, lingvistik terminologiya tarixiy jihatdan ham tadqiq etilgan. Tilshunoslik terminologiyasining rivojlanishi tilshunoslikning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi jarayoni bilan chambarchas bog'liq. Bu borada terminshunoslik lingvistik g'oyalar va tushunchalar taraqqiyotining ko'zguisidir. O'z shakllanishining dastlabki bosqichida lingvistik terminologiya tarqoqligi bilan ajralib turdi va lingvistik faktlarni tavsiflash, shuningdek, grammatikani yaratishga bo'lgan individual urinishlarni¹⁶ aks ettirdi, bu tilshunoslik fanining hali belgilangan standartlar va umume'tirof etilgan terminologik tizimlar mavjud bo'lmagan ibtidoiy davridagi eksperimental va izlanishlar xarakterini ko'rsatadi. Zamonaviy lingvistik terminologiya, o'z navbatida, til haqidagi umumiy tushunchalarni, shuningdek, turli yo'nalish va maktablarning metadialektlarini o'z ichiga olgan yaxlit metatildir¹⁷. Bundan kelib chiqadiki, lingvistik terminologiya nafaqat global miqyosda rivojlanadi, balki tilshunoslikning alohida tendensiyalari va yondashuvlariga oid o'ziga xos termin va tushunchalarni o'z ichiga oladi. Chet el tilshunosligining ta'siri, yangi ilmiy maktab va yo'nalishlarning shakllanishi tilshunoslik mazmuni va shunga mos ravishda terminologiyaning konseptual yangilanishiga imkon yaratgan.

Shunday qilib, zamonaviy lingvistik terminologiya tilni o'rganishning turli yo'nalishlari va yondashuvlarini qamrab olgan keng qamrovli terminlarni ifodalaydi. Bizning fikrimizcha, bu til tadqiqotida fanlararo yondashuv tendensiyasini aks ettiradi: zamonaviy tilshunoslik terminologiyasi tilni har tomonlama, yaxlit tahlil qilish uchun turli sohalardagi bilimlar integratsiyalashuvi natijasida turli fanlar terminlari bilan ancha boyidi.

Lingvistik terminologiya o'ziga xosligining asosiy ko'rinishlari uning tizimlilik va kompleksliligi, terminlarning nazariy yuklanishi, omonimiyadan samarali

¹⁴ Крапивник Е.В. Термины русской лингвистики: системный аспект описания // Тамбов: Грамота, 2020. – Том 13. – Вып. 10. – С. 122.

¹⁵ Сенина И.В., Меркурьева В.Б. Лингвистическая терминология в контексте становления и развития диалектологии немецкого языка. – Иркутск: Издательство ИГУ, 2021. – URL: https://www.researchgate.net/publication/353511769_Lingvisticeskaa_terminologia_v_kontekste_stanovlenia_i_raz_vitia_dialektologii_nemeckogo_azyka.

¹⁶ Евлоева З.И. Русская лингвистическая терминология в эволютивном аспекте: Дисс. ...канд. филол. наук. – Нальчик, 2006. – С. 6.

¹⁷ Евлоева З.И. Русская лингвистическая терминология в эволютивном аспекте: Дисс. ...канд. филол. наук. – Нальчик, 2006. – С. 6.

foydalanish, sinonimiya va ko‘p ma‘nolilikning mavjudligi, termin o‘zlashtirishning ochiqqligi, terminlarni parametrlashning murakkabligi, shuningdek, terminlar toifalarining xilma-xilligida namoyon bo‘ladi. Tilshunoslik terminologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari tilshunoslikning obyektini, shuningdek, uni tadqiq qilishning ko‘p qirraliligidan kelib chiqib belgilanadi. Lingvistik terminologiyada ko‘pma‘nolilik deganda, bitta lisoniy ramzning muayyan terminlar tizimiga xos ko‘p ma‘nolarni o‘zida mujassamlashtirish hodisasi tushuniladi¹⁸. Lingvistik terminning ma‘nolari tarixan bir asl ma‘nodan metaforik yoki metonimik ko‘chish tufayli rivojlanishi mumkin, chunki lingvistik terminlarning ko‘pma‘noliligi tilning tabiiy evolyutsiyasi natijasidir. Ko‘pma‘nolilik paydo bo‘lishining sabablari voqelikning xilma-xilligi bilan solishtirganda, til tizimining cheklanganligi, shuningdek, lingvistik omillar (semantik hosila, semantik ko‘chishlar: ma‘nolarning torayishi yoki kengayishi, ko‘chma ma‘nolarning paydo bo‘lishi, ikkinchi darajali nominatsiya) va ko‘p ma‘nolilikning paydo bo‘lishi uchun til vositalarining tejamkorligi, obyektiv voqelikdagi predmetlarning bog‘lanishi, tarixiy o‘zgarishlar, stilistik o‘zgarishlar, mintaqaviy farqlar kabi tildan tashqari omillar mavjud. Vaqt o‘tishi bilan terminlarning ma‘nolari kengayib, turli kontekstlarda yangi semantik qirralarini namoyon qiladi. Lingvistik termin tizimlarida ko‘pma‘nolilik muammolari doirasi tahlil qilinib, quyidagi asosiy jihatlar aniqlandi: terminologiyani izohlashdagi ambivalentlik; terminologik ma‘nolarning uyg‘unligi; terminlarning yetarlicha ta‘riflanmaganligi va semantik noaniqligi; ko‘pma‘nolilik kontekstida tarjima muammolari; terminologiyani tizimlashtirishdagi qiyinchiliklar.

Ko‘p ma‘noli terminning konseptual maydoni ko‘p ma‘noli terminning tuzilishini tashkil etuvchi semantik bog‘liq ma‘nolar yig‘indisidan iborat bo‘lib, ularda lisoniy birlikning turli ma‘nolari o‘rtasidagi munosabatlar alohida ahamiyatga ega bo‘ladi. Tipik konseptual maydonni tashkil etuvchi ko‘p ma‘noli terminning semantik tuzilishi ma‘nolar to‘plami yoki leksik-semantik variantlarning mavjudligini nazarda tutadi, ularning turlari bir til belgisi doirasidagi semantik munosabatlarning tabiati bilan oldindan belgilanadi. Ko‘pma‘nolilik bilan bog‘liq bo‘lgan, tilda ko‘p ma‘nolilikning shakllanish va rivojlanish mexanizmlarini ochib berishga xizmat qiluvchi asosiy tushunchalar leksik-semantik variantlar, semantik derivatsiya va tarixan aniqlangan semantik munosabatlar bilan bog‘liq. Ko‘pma‘nolilik konseptual maydonining o‘zagi terminning asosiy, birlamchi ma‘nosini ifodalaydi, periferiya (hosila ma‘nosi) esa ko‘proq hosilaviy, kamroq bevosita ma‘nolarni ifodalaydi. Konseptual sohadagi ichki semantik aloqalar ma‘nolarning ixtisoslashuvi, tarqalishi, taqsimlanishi, torayish va kengayish jarayonlarini hamda ma‘nolar o‘rtasidagi tarixan belgilangan munosabatlarni aks ettiradi¹⁹. Shundan kelib chiqqan holda, muayyan ko‘p ma‘noli terminlarni tahlil qilish ularning tarixiy rivojlanishini, leksik-semantik variantlarini va ular o‘rtasidagi semantik aloqalarni ko‘rib chiqishni taqozo etadi, chunki turli ma‘nolarning konseptual maydonning o‘zagi yoki periferiyasiga bog‘liqligini

¹⁸ Кукасова Д.Г. Структурно-семантический анализ терминов нефтегазопромысловой геологии в русском и английском языках: Дисс. ...канд. филол. наук. – Уфа, 2019. – С. 90.

¹⁹ Барабаш О.В. Подходы к пониманию феномена полисемии // Вестник Пензенского государственного университета. – № 1 (9), 2015. – С. 90.

terminning tarixiy rivojlanishi va asl ma'noga bevosita aloqadorlik darajasini tahlil qilish orqali amalga oshirish mumkin. Lingvistik adabiyotdagi ko'p ma'nolilikning konseptual sohasini tahlil qilish asosida bu hodisani termin ma'nolari va ularning evolyutsiyasi o'rtasidagi tarixan aniqlangan semantik bog'lanishlar ta'sirida shakllangan lisoniy hodisa sifatida belgilaymiz.

Kognitiv tilshunoslik ko'p ma'noli so'zlarning ma'nolari tizimli va tabiiy ravishda bog'langan bo'lib, ko'proq prototip va kamroq prototip ma'noga ega radial kategoriyalarni shakllantiradi, deb hisoblaydi. Kognitiv yondashuv polisemiyaning kognitiv jarayonlar va tilni mental tashkil etilishi bilan chambarchas bog'liq konseptual hodisa sifatida izohlaydi²⁰. Terminlarning ko'pma'noliligi ularni muayyan lingvistik nazariya yoki yondashuv doirasida aniq tizimlashtirish va tartibga solishga to'sqinlik qiladi. Bu muammo lingvistik terminologiyani tizimlashtirishdagi qiyinchiliklar bilan bog'liq. Terminlarning ko'pma'noliligi bir xil termin turli nazariy doiralarda turlicha talqin qilinishi mumkinligi sababli ularni ma'lum lingvistik nazariyalar yoki yondashuvlar doirasida aniq tasniflash va tartiblashda qiyinchiliklar tug'diradi. Terminologiyani tizimlashtirishdagi muammolarni hal qilishda, *birinchidan*, noaniqlik va polisemiya darajasini kamaytirish uchun lingvistik terminologiyada xalqaro standartlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. *Ikkinchidan*, ularni turlicha talqin qilish imkoniyatini minimallashtirish uchun terminlarning yanada qat'iy kontekstli ta'riflarini amalga oshirish kerak. Nihoyat, tarjimon va tilshunoslarga turli tillarga tarjima qilishda terminlarning ma'nosini to'g'ri yetkazishiga imkon beradigan kontekstual tahlil va semantik talqin qilish ko'nikmalarini o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning "**Kognitiv tilshunoslikda polisemiyaning o'rganishning nazariy asoslari**" deb nomlangan ikkinchi bobida ko'pma'nolilikni o'rganishda kognitiv yondashuvlar yoritilgan, kognitiv tilshunoslikda uni modellashtirish muammolari ochib berilgan.

Kognitiv yondashuv zamonaviy tilshunoslikda ko'pma'nolilikni tadqiq etishning eng samarali yo'nalishlaridan biri bo'lib, ushbu hodisani u kognitiv jarayonlar va bilimlar strukturasi prizmasi orqali ko'rib chiqadi. Bu nuqtayi nazardan ko'pma'nolilik insonning til doirasida fikrlash tarzining bevosita natijasi bo'lib, konseptuallashtirish (tushunchalarni shakllantirish va tushunish), turkumlashtirish (bu tushunchalarni tizimlashtirish) va nomlashga (obyektlar, hodisalar va tushunchalarni nomlash) asoslanadi. Ular inson tabiatining uch jihati: insonning jismoniy va neyrobiologik jihatlari bilan bog'liq: biologik, shu jumladan, kognitiv va hissiy jarayonlarni o'z ichiga oluvchi – psixik va ijtimoiy-madaniy omillar bilan belgilanuvchi ijtimoiy jihatlari ta'siri ostidadir²¹.

Polisemiya semantik derivatsiya natijasi bo'lib, u ikkinchi darajali semiozis sanalib, inson ongining tildagi mental va assotsiativ timsolini aks ettiradi. Semantik derivatsiyaning asosini analogiya tashkil etadi, u til taraqqiyotidagi tipiklashtirish va differentsiatsiya o'rtasidagi dinamikada o'z ifodasini topadi. Masalan, nostandart

²⁰ Kovács É. Polysemy in Traditional vs. Cognitive Linguistics // Eger Journal of English Studies, 2011. – № 11. – С. 14-16.

²¹ Лещёва Л.М. Лексическая полисемия в когнитивном аспекте. – М.: Языки славянской культуры; Знак, 2014. – С. 47.

lug‘at doirasida semantik hosila leksik tizimning umumiy xususiyatlarini sinkretizm elementlari bilan birlashtiradi. Ushbu quyi tizimda fikrlash, ko‘pincha, konkret, kundalik xarakterga ega bo‘lib, “inson – hayvon”, “inson – predmet”, “inson – uning tana a‘zosi” kabi semantik hosilaning kognitiv modellarini o‘z ichiga oladi²². Biz semantik hosilani, O.B. Ponomareva talqiniga ergashgan holda, terminlarning yangi ma‘nolarga ega bo‘lishi, asl semantikasini kengaytirish yoki o‘zgartirish jarayoni sifatida tushunamiz. Semantik derivatsiya tilning tabiiy evolyutsiyasining bir qismi bo‘lib, inson tafakkurining o‘xshashlik yoki asl ma‘no bilan o‘xshashlik yoki bog‘liqlik asosida yangi ma‘nosi ishlab chiqilganda, analogiyalar yordamida turli tushuncha va g‘oyalarni assotsiativ ravishda bog‘lash, ya‘ni ma‘noning metaforik yoki metonimik ko‘chish imkoniyatini aks ettiradi.

Rus va ingliz konsepsiya maydonlarining nostandart quyi tizimidagi semantik derivatsiya ko‘p funksiyali, ko‘pma‘nolilik va bifurkatsiyaga ega semantik konvergensiya va konseptual integratsiyani birlashtiradi, ya‘ni barcha ochiq va o‘z-o‘zidan rivojlanayotgan tizimlarga xos xususiyat sanaladi²³. Metaforik va metonimik konstruksiyalarda ma‘noning ko‘chishi inson tomonidan tashqi voqelikni konseptuallashtirishga xizmat qiladi, dunyoni soddalashtirilgan (lingvistik) holda idrok etishni shakllantiradi.

Ko‘pma‘nolilik tarkibiga so‘zning genetik ma‘nosi bilan ifodalangan semantik o‘zak hamda metaforik va metonimik ko‘chishlar orqali genetik ma‘no bilan bog‘langan hosila ma‘nolardan tashkil topgan periferiya kiradi. Ko‘pma‘nolilikning semantik maydoni radial, zanjirli yoki aralash bo‘lishi mumkin. Ko‘pma‘nolilikni yaratishdagi asosiy bosqich iyerarxik semantik maydonlarning vujudga kelishida asos bo‘ladigan leksik-semantik nominatsiyadir.

Kognitiv yondashuv ko‘pma‘nolilikni o‘zaro bog‘liq tushunchalardan ajratish imkonini beradi; farqlash leksik prototiplarni tahlil qilish va ona tilida so‘zlashuvchilarning kognitiv tuzilmalarida termin ma‘nolari iyerarxiyasiga asoslanadi. Shunday qilib, kognitiv yondashuv nuqtayi nazaridan ko‘pma‘nolilik va ko‘pfunksiyalilik o‘rtasidagi farqni ularning asosiy xususiyatlari va tilda namoyon bo‘lish usullarini o‘rganish orqali aniqlash mumkin. Ko‘pma‘nolilik bir termin uchun bir-biriga bog‘liq bo‘lgan bir nechta, lekin turli ma‘nolarning mavjudligini bildiradi va terminlarning ko‘pma‘noliligi va ularning kontekstga qarab turli tushunchalarni ifodalash qobiliyati bilan bog‘liq. Ko‘pfunksiyalilik esa leksik birikmalarning tilda turli vazifalarni bajarish qobiliyatini bildiradi, ularning semantik ma‘nosi bilan bog‘liq bo‘lishi shart emas²⁴.

Kognitiv-semantik mezonga ko‘ra, ma‘lum bir tovush kompleksi bilan bog‘liq barcha leksik-semantik variantlar uchun bitta leksik prototip hosil bo‘lishi mumkin bo‘lsa, u holda bu tovush kompleksini ko‘pma‘noli termin deb hisoblash kerak. Agar leksik prototiplar bir-biriga to‘g‘ri kelmasa, turli leksik-semantik variantlar turli

²² Пономарева О.Б. Когнитивные и прагмастилистические аспекты семантической деривации: на материале русского и английского языков: Автореф. дисс. ...докт. филол. наук. – Тюмень, 2007. – С. 10.

²³ Пономарева О.Б. Когнитивные и прагмастилистические аспекты семантической деривации: на материале русского и английского языков: Автореф. дисс. ...докт. филол. наук. – Тюмень, 2007. – С. 10.

²⁴ Шевченко В.Д. Когнитивные аспекты использования полифункциональных лексических единиц в сфере англоязычной деловой коммуникации: Дисс. ... канд. филол. наук. – Самара, 2003. – 205 с.

omonim terminlarga mansub deb hisoblanib, bunda nafaqat logotsentrik va sotsiolingvistik yondashuvlar, balki inson omilini ham inobatga olish zarur²⁵. Bundan tashqari, ko'pma'nolilik va omonimiyani farqlashda til shaxsining individual xususiyatlari va sotsiolingvistik maqomini hisobga olish lozim, chunki bir xil tovush majmuasi bir kishi tomonidan ko'pma'noli termin, boshqasi tomonidan turli omonim terminlar sifatida qabul qilinishi mumkin. Semantik tuzilishda eng yaqin leksik prototip (nominativ – hosil bo'lmagan ma'no) uzoq leksik prototipga (invariant) qaraganda kamroq barqaror, bu bir terminning ma'nolari iyerarxiyasi turli terminlarning ongida farq qilishi mumkinligi bilan belgilanadi. Uzoqdagi leksik prototip eng yaqiniga nisbatan ko'proq barqarorlikka ega, bu ularning sotsiolingvistik yo'nalishdagi farqlarga qaramay, bir xil tilda so'zlashuvchilar o'rtasida bir-birini to'g'ri tushunish va muvaffaqiyatli muloqotga yordam beradi²⁶.

Til insonning kognitiv xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan dinamik, interaktiv tizimdir. Oddiylik, mantiqiylik va tejamkorlik prinsiplariga rioya qilgan holda tilni rivojlantirish insonga kognitiv jarayonlar orqali doimiy o'zgaruvchan tajribani tasvirlash uchun lingvistik resurslarni samarali moslashtirish va kengaytirish imkonini beradi. Terminlarning ikkilamchi ma'nolarini shakllantirish va tushuncha hosil qilish jarayonlari o'ziga xos xususiyatga ega, ammo ular lingvistik qurilishining kengroq tizimi doirasida bir-biri bilan uzviy bog'liq va o'zaro ta'sir qiladi.

Kategoriyalar murakkab taksonomik tuzilishga ega bo'lishi mumkin, unda a'zolar o'rtasida giperonimik, giponimik va ekvonimik munosabatlar mavjud bo'lib, bu, ayniqsa, terminlarning leksik-semantik guruhlarida seziladi, bunda turli tushunchalar turli munosabatlar orqali bir-biri bilan o'zaro bog'lanishi mumkin. Ko'p ma'noli terminlar mantiqiy xulosalar va taxminlarga asoslangan bir nechta kategoriyalarni o'zida birlashtirgan va shartli ekvivalentlikdan implikatsiyaga qadar turli munosabatlarni o'zida mujassam etgan makrotuzilmalarning maxsus turidir. Politsentrik konseptual kategoriya va uning a'zolari bitta emas, balki bir nechta prototiplar bilan bog'langan. Bu ko'p ma'noli makrostrukturani odatiy turdagi prototip toifadan ajratib turadi, bunda bir nechta prototiplar shartli ekvivalentlik va bo'ysunish munosabatlarsiz bir toifani aniq ifodalashi mumkin.

Shunday qilib, leksik ko'pma'nolilikni kognitiv tilshunoslik prizmasi orqali ko'rib chiqish ko'pma'nolilikni belgilovchi metafora va metonimiyalar asosida konseptualizatsiya va yangi ma'nolarni shakllantirish jarayonlarini hisobga olgan holda, jarayonning yakuniy bosqichi sifatida, turli mantiqiy munosabatlar va leksik-semantik nominatsiyaga asoslangan bir nechta toifalarni birlashtiruvchi konseptual makrostrukturaning maxsus turi bo'lgan konseptualashtirish, turkumlashtirish va nominatsiyaning bilish jarayonlarining o'zaro ta'sirini o'rganishni ta'minlaydi.

Asosiy fond so'zlarining yangi ma'nolar bilan boyish jarayoni metafora va metonimiya orqali sodir bo'ladi. Motivatsion konsepsiya doirasidagi verbalizatsiya

²⁵ Новиков Д.Н. Разграничение полисемии и омонимии в свете когнитивной лингвистики: на материале современного английского языка: Дисс. ...канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2001. – С. 5.

²⁶ Новиков Д.Н. Разграничение полисемии и омонимии в свете когнитивной лингвистики: на материале современного английского языка: Дисс. ...канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2001. – С. 5-6.

metaforik konsepsiyaga muayyan toifani beradi, uning semantikasiga asosiy komponentni kiritadi. Shuni ta'kidlash kerakki, yangi ma'no va tushunchalarni shakllantirish jarayonida o'ziga xos semantik jihatlar kommunikativ ahamiyatga ega bo'ladi. Metonimiya yangi ma'no va tushunchalarning shakllanishida o'zgaruvchan dunyoga moslashish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. A.A. Karelinaning fikriga ko'ra, konseptual proeksiya qism va butun o'rtasidagi munosabatni ifodalovchi ideallashtirilgan kognitiv modellarga asoslanadi, bu esa "Butun qismga tegishli", "Qism butunga oid" va "Qism qismga daxldor" metonimik takliflarining shakllanishiga olib keladi. Ular turli metonimik proyeksiyalar asosida guruhlariga bo'linadi, jumladan, "Obyekt va uning qismlari", "Hodisa va uning bosqichlari", "Funksional munosabatlar" va boshqalar yangi metonimik ma'nolar va terminlarning shakllanish jarayonlariga asos bo'ladi. Metonimik proyeksiya nafaqat konseptual, balki formal darajada ham yuzaga keladi, bu fonologik va sintaktik neologizmlarda aks etadi²⁷. Metonimik ma'nolar ko'p bosqichli jarayonda shakllanadi, ular bir nechta ideallashtirilgan kognitiv modellarni va konsepsiyani qayta tasniflash jarayonini qamraydi, bu metonimiyadagi konseptual modellarning murakkab va tarqoq xarakterini aks ettiradi.

Kognitiv yondashuv til va uning tuzilishini rivojlantirishda kognitiv jarayonlarning mohiyatini umumlashtiradi. Psixologik assotsiatsiyalar va kognitiv strukturalarni aks ettiruvchi so'zning ma'nosi oldindan turg'un bo'lishi mumkin emas, u dinamik va kontekstualdir. Ko'pma'nolilikda kognitiv yondashuvdan foydalanish istiqboli leksik semantikaning an'anaviy tushunchasini kengaytiradi, chunki u lisoniy belgilarning shakllanishi va izohlanishida psixik jarayonlarning rolini hisobga oladi. Tildagi o'zgarishlar, fikrimizcha, insonning o'zgaruvchan dunyoga kognitiv moslashuvining aksi sifatida qaralishi kerak. Inson tafakkuri evolyutsiyasi, dunyoni idrok etish va til o'zgarishlari o'rtasidagi bog'liqlik, insonning atrof-muhit o'zgarishlariga kognitiv moslashuvi – lingvistik tuzilmalarda o'z aksini topadigan hodisadir. Voqelikni idrok etish va talqin qilish usullarining o'zgarishi bilan til ham o'zgarishlarga uchraydi, bu yangi og'zaki shakllarning yuzaga kelishida va mavjud terminlar semantik ma'nolarining moslashishi yoki o'zgarishida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, til yangi texnologiyalar va ijtimoiy-madaniy voqelikka munosabat bildirgan holda, inson ongidagi kognitiv o'zgarishlarning ko'rsatkichi sifatida ishlaydi. Ushbu jarayonning qonuniyligi shundaki, til nafaqat aloqa vositasi, balki kognitiv faoliyat vositasi bo'lib, jamiyat va texnologiyalardagi o'zgarishlar tufayli yangi voqelik va sharoitlarga javoban faol ravishda o'zgaradi.

Ko'pma'nolilik tizimli xarakterga ega bo'lib, konseptuallashtirish, turkumlashtirish, metaforik va metonimik ko'chishning kognitiv mexanizmlariga asoslanadi. Kognitiv tilshunoslikka mos ravishda, tilda ko'p ma'nolilikning paydo bo'lish mexanizmlarini tushuntirish va modellashtirish imkonini beruvchi va ko'p ma'nolilikning tizimli va tartibli xarakterga egaligi haqidagi g'oyaga asoslanuvchi bir qancha modellar ishlab chiqilgan. Ko'pma'nolilikka nisbatan leksik prototip,

²⁷ Карелина А.А. Когнитивные механизмы взаимодействия многозначных существительных и отсубстантивных прилагательных в современном английском языке: на материале словообразовательных моделей n + -ish, + -y: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2006. – 25 с.

masalan, terminning boshqa ma'nolari olingan asosiy yoki birlamchi ma'nosi sifatida qaralishi mumkin. Prototip ma'no, odatda, bir xil terminning boshqa ma'nolari orasida eng ko'p ishlatiluvchi, keng tarqalgan va eng "standarti" hisoblanadi. Ko'p ma'noli terminning turli ma'nolari markaziy, prototip ma'no atrofida tashkil etilishi mumkin. Prototip nazariyasi va radial kategoriya modeli shuni ko'rsatadiki, ko'pma'nolilik prototip effektlarga asoslangan ko'p ma'noli termin ichidagi ma'nolar iyerarxiyasi, yadro va periferiyaga ega kognitiv kategoriya sifatida ifodalanishi mumkin.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Ingliz, o'zbek va rus tillarida lingvistik terminlar polisemiyasini kognitiv modellashtirish determinantlari**" deb nomlanadi. U o'rganilayotgan tillarda ko'p ma'nolilikni kognitiv modellashtirishga ta'sir etuvchi determinantlar tahliliga bag'ishlangan, shu bilan birga, lingvistik terminlarga taalluqli turli kognitiv modellar tiplari ham aniqlangan.

So'zning ma'nosi – kognitiv qayta ishlash va shaxsning o'z tajribasi va taassurotlarini talqin qilish natijasi bo'lib, bu ko'pma'nolilikning kognitiv mexanizmlari mavjudligini ko'rsatadi. Ko'p ma'noli terminlarning ma'nolari til egasining atrofimizdagi olam bilan munosabati va turli xil tajribalarining umumlashtiruvchisi sifatida shakllanganligi natijasida, muayyan termin ma'nosining xilma-xilligi inson faoliyatining shu termin bilan bog'liq turli tajribalari va xususiyatlarini aks ettiradi, bu esa "kognitiv model" tushunchasi bilan uzviylashadi. Tilshunoslik terminlari ko'pma'noliligining kognitiv modeli keng ma'noda terminlardagi ko'pma'nolilikni inson miyasi qanday idrok etishi va qayta ishlashining nazariy tavsifi sanaladi. Bunda terminning turli ma'nolari haqidagi ma'lumotlar qanday tartibga solinishi va xotirada saqlanishi, kontekstdan kelib chiqqan holda, tegishli ma'no qanday tanlanishi va ko'p ma'nolilikni qayta ishlash uchun qanday kognitiv strategiyalardan foydalanilishi haqidagi g'oyalar o'z aksini topadi. Model, shuningdek, ko'p ma'noli so'zlarni idrok etish va qo'llashda madaniy, ijtimoiy va individual omillarning ta'sirini ham nazarda tutadi.


Tor ma'noda – ko'pma'nolilikning kognitiv modeli ko'p ma'noli terminning turli ma'nolarini umumiy asos bilan bog'langan ma'nolarning yagona tarmoqlangan tuzilishi sifatida tavsiflaydi. Ushbu modelga ko'ra, umumiy asos terminning asosiy yoki birlamchi ma'nosini ifodalaydi, undan esa boshqa, ya'ni maxsus yoki ko'chma ma'nolar tarmoqlanadi.

Tildagi ma'noni uzatish jarayoni verbal elementlarning murakkab tarmoq tuzilishini shakllantirishga yordam beradi, bu juda katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlashni, shuningdek, tashqi taassurotlarning verbal-kognitiv kontekstga integratsiyalashuvini ta'minlaydi. Terminlarning yangi ma'nolari kognitiv faollik jarayonlari orqali yuzaga keladi, ular orqali terminlar o'zlarining asl ma'nosi va u foydalanilgan kontekstdan kelib chiqqan holda qo'shimcha ma'nolarga ega bo'lish mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Kognitiv faollik idrok etish va talqin qilish, aqliy assotsiatsiyalar, kontekstual sharoit va til adaptatsiyasi kabi tushunchalarga asoslanadi. Ko'p ma'nolilikni kognitiv modellashtirish jarayonida lingvistik terminlarning ko'pma'noliligini tushuntiruvchi kognitiv modellarning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi determinantlarni aniqlash va tahlil qilishga alohida e'tibor beriladi. Shuni ta'kidlash joizki, terminlarning

nominatsiya usullari va semantik tuzilishini ishlab chiqish konsepsiyasini tahlil qilishda mazkur jarayonga ta'sir qiluvchi lingvistik omillar tilda ko'p ma'nolilikni ifodalashning assotsiativ aloqalari va ichki modellari orqali yuzaga chiquvchi voqelikni turkumlashning tipik vositalarini belgilaydi. Masalan, biz tadqiq qilayotgan ingliz, o'zbek va rus tillarida tushunchalardagi o'xshashlik yoki yaqinlikka asoslangan metaforik va metonimik ma'no ko'chishlari keng tarqalgan bo'lib, ular mazkur tillarda mustahkamlangan tamoyil va qoidalarga muvofiq ko'p ma'noli terminning semantik tuzilishining kengayishiga olib keladi.

Umuman, ko'p ma'nolilikning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarga lingvistik nuqtayi nazardan yondashganimizda, ularning ta'sir doirasidagi ikki jihatni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchi jihat ichki lingvistik omillar sanaladi. U terminning muayyan ma'nosi doirasida semantik o'zgarishlarga ta'sir etadi. Ana shunday o'zgarishlar natijasida terminning semantik tarkibi kengayib, mavjud termin tarkibida yangi ma'nolar paydo bo'ladi. Ikkinchi yo'nalish ijtimoiy, tarixiy va iqtisodiy jihatlardan iborat ekstralingvistik omillarda namoyon bo'ladi. Ushbu omillarning ta'siri cheklangan, lingvistik arsenal doirasida yangi ma'nolarni munosib ravishda nomlash zaruratida namoyon bo'ladi.

Lingvistik terminlar ko'pma'noliligining kognitiv modellarini shakllantirish jarayoniga ta'sir qiluvchi asosiy omillarga quyidagilar kiradi [1-rasmga qarang].




1-rasm. Ko'p ma'noli lingvistik terminlar kognitiv modelning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar

Demak, lingvistik terminlarning ko'pma'noliligini modellashtirish tilda ko'pma'nolilikning shakllanishiga yordam beruvchi kognitiv xarakterdagi bir qator ichki va tashqi omillar bilan belgilanadi. Ko'pma'nolilikni kognitiv modellashtirishning determinantlarini aniqlash terminlarning semantik o'zgarishlar

mexanizmlarini va terminlar tizimidagi ko‘pma‘nolilik sabablarini aniqlashga imkon beradi.

Ingliz, o‘zbek va rus tillaridagi tilshunoslik terminlari ko‘pma‘noliligining kognitiv modellari so‘zlar ko‘pma‘noliligini konseptuallashtirish yo‘llarini namoyon etib, terminlar ko‘pma‘noliligini tasodifiy, bir-biridan farq qiluvchi ma‘nolar yig‘indisi sifatida emas, balki umumiy kognitiv prinsiplar bilan birlashtirilgan, tuzilgan va tizimlashtirilgan ma‘nolar to‘plami sifatida ko‘rib chiqiladi [2-rasmga qarang].



2-rasm. Lingvistik terminlar polisemiya­ning kognitiv modellari

Radial turkumlash modeliga ko‘ra, terminning ma‘nolaridan biri prototip yoki markaziy hisoblanadi, undan boshqa ma‘nolar, ya‘ni metaforik yoki metonimik kengayish bilan kognitiv jarayonlar orqali o‘zaro bog‘langan asosiy bo‘lmagan (hosila) periferik ma‘nolar tarmoqlanadi.

Radial turkumlashtirish lingvistik terminlarning ko‘pma‘noliligini tahlil qilishning muhim usuli bo‘lib, metaforik va metonimik kengaytmalar orqali so‘zning prototip ma‘nosidan hosila ma‘nolarning qanday bo‘linishini aniqlash imkonini beradi.

Ingl.t:

Syntax termini quyidagi ma‘nolarga ega:

1. Prototip ma‘no – gaplardagi termin va iboralarni birlashtirish qoidalari.
2. Metonimik kengayish – tilning grammatik qoidalari tizimi.
3. Metaforik kengayish – biror narsaning tuzilishi va mantiqiy tashkil etilishi.

O‘zb.t.:

So‘z termini:

1. Prototip ma‘no – nutq birligi, so‘z.
2. Metonimik kengayish – lug‘at.
3. Metaforik kengayish – nutq, jumla.

Rus t.:

Ma‘no termini:

1. Prototip ma‘no – termin ma‘nosi, tushuncha.
2. Metonimik kengayish – ko‘p ma‘noli terminning barcha ma‘nolari yig‘indisi.

3. Metaforik kengayish – biror narsaning ahamiyati, nimaningdir qadriyati.

Metaforik proyeksiya modeli ko‘pma‘nolilikni metafora orqali izohlaydi. Bunda muayyan terminning ma‘nosi (odatda, aniq narsa) boshqa mavhum tushunchaga ko‘chadi, bu o‘xshashlik yoki muqobillik asosida ba‘zi hodisalarni boshqa termin bilan aniqlashning kognitiv mexanizmiga bog‘liq. Metaforik proyeksiya modeli shunday g‘oyaga asoslanadiki, unga ko‘ra metafora shunchaki stilistik vosita emas, balki muayyan hodisalarni boshqalar prizmasi orqali idrok etish imkonini beruvchi tafakkurning asosiy mexanizmidir.

Masalan, ingliz tilida *stress* termini “*ur‘g‘u*” lingvistik ma‘nosiga va “kuchlanish” umumiy ma‘nosiga ega. Proyeksiya jismoniy zo‘riqish hissidan so‘zdagi urg‘uni anglatuvchi mavhum tushunchaga yo‘naltirilgan. Talaffuz paytida urg‘uli bo‘g‘in ko‘proq jismoniy kuch bilan bog‘liq bo‘ladi, shunga ko‘ra termin ma‘nosi ko‘chgan. O‘zbek tilida *talaffuz* termini “произношение” va “выговаривание” ma‘nosini anglatadi. Proyeksiya aniq jismoniy harakat “gapirish”dan mavhum lingvistik “talaffuz” tushunchasiga yo‘nalgan. Rus tilida valentlik termini “valentlik” kimyoviy termini (atomning ma‘lum miqdordagi boshqa atomlarni birlashtirish qobiliyati) ma‘nosini tildagi terminlarning sintaktik muvofiqligini atash uchun qo‘llanadi. Atomlarning konkret jismoniy o‘zaro ta‘siridan lingvistik birliklar orasidagi mavhum munosabatlarga bo‘lgan proyeksiya mavjud. Metonimiya konseptual jarayon sifatida taqdim etiladi. Bunda bitta konseptual birlik (o‘tkazgich) bitta ideallashtirilgan kognitiv model doirasida boshqa konseptual obyekt (maqsad)ga mental yo‘nalishni ta‘minlaydi²⁸.

Metonimik model voqelikdagi bog‘lanish va referentlarning o‘zaro ta‘siri assotsiatsiyasiga asoslangan ko‘p ma‘noli terminlarning turli ma‘nolari orasidagi semantik bog‘lanishni kuzatish imkonini beradi. Masalan, ingliz tilida *speech* – “nutq”, “ma‘ruza”, “ovoz”: Bunda “nutq”dan ma‘lum bir “ma‘ruzachi nutqi” va “ovoz”ga o‘tish kuzatiladi. O‘zbek tilida nutq – “речь”, “язык”, “выступление” ma‘nolarini bildiradi. Metonimik ko‘chish nutqdan muayyan tilga yoki nutq so‘zlash ma‘nosini ifodalagan. Rus tilida *слово* “til birligi”, “nutq, ma‘ruza”, “va‘da, qasam” ma‘nolariga ega. “Til birligi” ma‘nosidan “nutq” va “va‘da” ma‘nolariga ko‘chgan, chunki termin til birligi sifatida nutqni tuzish va va‘da berish uchun qo‘llanadi.

Konseptual integratsiya modeli (*blending theory*) ko‘pma‘nolilikni konseptual sintez natijasi deb qaraydi, bunda ikki yoki undan ortiq (turli ma‘nolarni o‘z ichiga olgan) bo‘shliqlar boshqa kirish bo‘shliqlarning xususiyatlarini birlashtirgan yangi ma‘nolarni yaratish uchun birlashadi. Ingliz tilida *word, meaning, context, stress, letter, form* kabi lingvistik terminlar o‘zaro kesishadigan va bir-birini to‘ldirishi mumkin bo‘lgan bir nechta ma‘noga ega bo‘lish imkoniyatini aks ettiradi. Misol uchun, *word* so‘zi ham til birligini, ham va‘dani anglatishi mumkin, bu terminning lingvistik va ijtimoiy darajadagi munosabatlarda muhimligini ko‘rsatadi. Xuddi shunday, *stress* termini ham lingvistik urg‘u ma‘nosi va umumiy zo‘riqish ma‘nosini ifodalab, ifodaning jismoniy va hissiy kuchini aks ettiradi. O‘zbek tilidagi *so‘z, ma‘no, ohang, harf, shakl, matn* kabi terminlar ham konseptual

²⁸ Милькевич Е.С. К вопросу о когнитивности метонимии в современном английском языке // Практики и интерпретации: журнал филологических, образовательных и культурных исследований, 2016. – Вып. 1. – № 1. – С. 205.

integratsiyani ko'rsatadi. Masalan, so'z til birligi va nutq ma'nosini o'z ichiga oladi. *Ohang* so'z urg'usi va musiqiylikni o'zida mujassamlashtirib, tilning musiqiylikni qayd etadi. Rus tilidagi *слово, смысл, ударение, буква, форма, контекст* so'zlari ham konseptual integratsiyaga bog'liq. Masalan, *слово* ham lisoniy birlikni, ham va'dani anglatishi mumkin.


Konseptual domenlar modeli ko'pma'nolilikni turli konseptual sohalar (masalan, jismoniy, ijtimoiy, psixologik) prizmasi orqali ko'rib chiqadi, ular doirasida termin turli ma'nolarni ifodalashi mumkin va lingvistik tuzilmalarning xilma-xilligi kontekstual muhit va kognitiv jarayonlar o'rtasidagi qanday o'zaro ta'sir orqali sodir bo'lishini aniqlashga qaratilgan. Masalan, ingliz tilidagi *case* gapdagi terminlar o'rtasidagi munosabatlarni bildiruvchi kelishik ma'nosini anglatadi. Shuningdek, bu termin huquqiy masala yoki vaziyatni bildirishi mumkin bo'lgan huquqiy kontekstda ham ishlatiladi. O'zbek tilida *til* so'zi tilshunoslikda aloqa vositasini, anatomiyada esa, ta'm va artukilyatsiya uchun zarur bo'lgan og'iz bo'shlig'idagi organni bildiradi. Rus tilidagi *частьца* so'zi lingvistikada shaklan o'zgarmaydigan va gapda sintaktik yoki modal funksiyalarni bajaruvchi mustaqil so'z turkumi bo'lsa, fizikada esa, *частьца* so'zi materiyaning eng kichik elementini anglatadi.

Ssenariy va freymlar modeli til terminlarining ko'pma'noliligini ssenariy va freymlar – terminlarning kontekstga ko'ra muayyan ma'nolarni faollashtirishga imkon beruvchi tipik vaziyatlar, hodisalar yoki obyektlar haqidagi tuzilgan bilimlari orqali izohlaydi. Jumladan, ingliz tilida *subject* termini grammatik funktsiya (ega) va suhbat mavzusi uchun qo'llanilishi mumkin. Bu tahlilning sintaktik va diskurs darajalarining o'zaro ta'sirini aks ettiradi (freymlar: sintaksis, diskurs (nutq)). O'zbek tilida *so'z* ingliz tilidagi *wordga* o'xshab, ikki xil qo'llaniladi – alohida so'z va bir butun nutq ma'nosida (freymlar: til birligi, nutq). Rus tilida *слово* xuddi ingliz va o'zbek tillarida bo'lgani kabi ikki asosiy ma'noga ega – leksik birlik va ibora (freymlar: til, nutq).

Demak, lingvistik termin ko'pma'noliligining kognitiv modellari terminning turli ma'nolarini umumiy yadro bilan bog'lashning tarmoqlangan tuzilmasi sifatida tavsiflaydi, so'zlovchining ongida ma'lumotni tizimlashtirish mexanizmlarini aks ettiradi va ma'noni tanlashda kontekstning muhimligini hisobga oladi.

Dissertatsiyaning **“Ingliz, rus va o'zbek tillarida lingvistik terminlar polisemiya'sining kognitiv modellarini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari”** deb nomlangan to'rtinchi bobida lingvistik terminlar ko'pma'noliligining kognitiv modellari qiyosiy tahlil qilinib, ularning ingliz, o'zbek va rus lingvistik terminologiyalarida qo'llanilishidagi umumiylik va o'ziga xosliklar izohlangan.

Ingliz, o'zbek va rus tillarida lingvistik terminlar ko'pma'noliligining kognitiv modellarini har tomonlama tahlil qilish maqsadida ishda qiyoslanayotgan tillardagi lingvistik terminlar ko'pma'noliligining kognitiv modellarini har tomonlama tahlil qilishning barcha asosiy bosqichlarini qamrab oluvchi ketma-ket tadqiqot algoritmi ishlab chiqildi [3-rasmga qarang]. Ushbu algoritmi til materialini tanlashga tizimli yondashish, terminlarning lug'aviy ma'nolarini batafsil tahlil qilish, polisemiyaning kognitiv mexanizmlarini qayta qurish, ko'pma'nolilik modellarini tillararo qiyoslash va olingan natijalarni sifat jihatidan izohlash imkonini beradi.



3-rasm. Lingvistik terminlar polisemiya­ning kognitiv modellarini tahlil qilish algoritmi

Tilshunoslik terminlarini kognitiv tomondan va ularning qiyoslanayotgan tillarning lingvistik terminlar lug'atlaridagi ta'riflarini tahlil qilish jarayonida lingvistik va kognitiv jarayonlarning xilma-xilligini aks ettiruvchi terminlarning turli ma'no va qo'llanishlariga duch kelamiz. Xususan, "word" termini "The Cambridge Dictionary of Linguistics"²⁹da fikr-mulohaza o'rnida kela oladigan minimal mustaqil til birligi sifatida ta'riflanadi. Bu ta'rifda terminning ikki asosiy xususiyati ta'kidlanadi: minimalizm va mustaqillik. Minimalizm terminning leksik ma'nosi yoki gapdagi vazifasini saqlab qolgan holda kichikroq birliklarga bo'linmasligini ko'rsatadi, mustaqillik esa, terminning kommunikativ vazifani bajarish qobiliyati bilan belgilanadi. "The concise Oxford dictionary of linguistics"³⁰ ham muqobil ta'rif berilgan, ammo batafsilroq ta'rif taklif qilinadi. Unga ko'ra, termin leksik yoki grammatik ma'noga ega til birligi sifatida tavsiflanadi, yozma shaklda, odatda, bo'sh o'rin bilan chegaralanadi, deb ko'rsatiladi. Bu bilan "leksik va grammatik ma'no" tushunchasi kiritiladi, terminning faqat ma'no tashuvchi sifatida emas, balki gap tarkibida ham muayyan vazifani bajaradigan birlik sifatida ma'no chegaralari kengaytiriladi.

"Word" terminining ko'pma'noliligi asosidagi kognitiv jarayonlar va modellar metaforik va metonimik ma'no ko'chishlariga asoslanadi. Bunda so'zning axborot va bilimlarni uzatish uchun asos sifatidagi universal roli namoyon bo'ladi. M.R. Galiyevaning fikriga ko'ra, lingvistik belgilar so'zni til va nutqning asosiy birligi sifatida belgilash uchun birlashadi³¹. Masalan, terminning majoziy qo'llanishi nafaqat muayyan lingvistik hodisani, balki muloqot va idrok bilan bog'liq ko'proq mavhum fikrlarni ham aks ettirishi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, lingvistik terminologiyada "word" kognitiv metaforasi tilning mavhum tushunchalarini tuzish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Ingliz tilidagi "word" lingvistik terminining metaforizatsiya jarayoni kognitiv mexanizmlar orqali konseptual metafora mavjud bilim va tajribaga tayangan holda, yangi ma'nolarni yaratish imkoniyatini aniq ko'rsatadi.

Tahlil davomida biz "word" terminining turli metaforik konsepsiyalarini aniqladik: ma'no tashuvchisi (*This word contains multiple nuances*); aloqa vositalari (*Words serve as tools for expressing ideas*); organizm (*New words are born, evolve, and sometimes die out*); matnning tashkil qiluvchisi (*Words are the building blocks of sentences and discourse*); valyuta (*Loanwords enrich the lexical treasury of the language*); kod (*Morphemes are the codes that make up complex words*); og'zaki va aqliy faoliyat mahsuli (*Words are forged in the mind and encoded in speech*). Mavhum fikrlash, kategoriyalash va konseptualizatsiya kabi kognitiv jarayonlar tajribaning turli domenlari o'rtasidagi aloqalarni aks ettiruvchi metaforizatsiyaning asosida yotadi. Metaforik tafakkur assotsiativ jarayonlarni faollashtiradi, kognitiv qayta ishlash va murakkab g'oyalarni o'zlashtirishni osonlashtiradi va "word" terminini yanada tushunarliroq qiladi va aniqlashtiradi.

²⁹ Brown K., Miller J. The Cambridge Dictionary of Linguistics. – Edinburgh: Cambridge University Press, 2013. – 492 p.; Matthews P.H. The concise Oxford dictionary of linguistics. – Oxford: Oxford University Press, 2014. – 464 p.

³⁰ Matthews P.H. The concise Oxford dictionary of linguistics. – Oxford: Oxford University Press, 2014. – 464 p.

³¹ Галиева М.Р. Вербализация концептосферы WORD/СЎЗ/СЛОВО в английской, узбекской и русской языковых картинах мира: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2010. – 28 с.

Shunday qilib, “word” kognitiv metaforasi termini konsepsiyalash va soʻzni oʻrganishning yangi usullari orqali ushbu terminning konseptual maydonini kengaytiradi.

Metonimiya esa, ikkinchi tomondan, soʻzning oʻz qismi yoki atributi orqali kengroq konsepsiya yoki hodisani ifodalash imkonini beradi. Kognitiv metonimiya lingvistik terminologiyaning konteksti va “word” terminidan foydalanishda –ikki element oʻrtasidagi toʻgʻridan toʻgʻri bogʻlanish orqali murakkab gʻoyalarni qisqa ifodalay olish qobiliyatini namoyon etadi, bunda bir element (soʻz) boshqa til voqeligining yanada keng yoki murakkab jihatini ifodalaydi. Metonimiya metaforadan farqli oʻlaroq, maʼnoni oʻxshashlik asosida koʻchirmaydi, balki kontekstual yoki funksional bogʻliqlik prinsipiga asoslanadi. Qiyoslaymiz: “Language” maʼnosida “word”: “word” terminining umuman *tilni* ifodalash uchun qollanilishi metonimik xususiyatga ega boʻlib, butunning qismni ifodalashiga asoslanadi: soʻz butun tilga xos sifat va xususiyatlarni aks ettirishi mumkin. Endi muayyan alohida soʻzni emas, balki butun ingliz tili maʼnosini ifodalovchi “English word” iborasini ham taqqoslaylik. “Word” “Speech or Discourse” maʼnosida – nutq yoki diskursning sinonimi sifatida qaraladi, u kengroq nutq faoliyatini yoki diskursdagi ishtirokni anglatadi. “Concept or Idea” maʼnosini anglatuvchi “word”: bunday hollarda metonimiya soʻzlar gʻoyalar yoki konsepsiyalarning tashuvchisi ekanligini aks ettiradi va bu bilan lingvistik shakl va fikr mazmuni oʻrtasidagi munosabatni qisqacha ifodalaydi. “Word” “Lexical Category” maʼnosida soʻzlarning butun bir sinfini belgilash uchun ishlatiladi; metonimiya soʻzning tildagi funksional vazifasini aks ettiradi. Lingvistik terminologiyada metonimiyaga keltirilgan misollar shuni koʻrsatdiki, “word” soʻzi murakkab gʻoyalardan konkret birliklarni ham oʻzida jamlagan keng lingvistik va kognitiv jarayonlarni koʻrsatish uchun ishlatilishi mumkin. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, “word” termini qoʻllaniladigan kognitiv metonimiya tilshunoslikdagi muhim hodisa boʻlib, u murakkab lingvistik va kognitiv jarayonlarni ixcham va toʻgʻri ifodalashga xizmat qiladi.

Oʻzbek tilidagi “soʻz” terminida ham koʻpmaʼnolilik mavjud boʻlib, u turli kognitiv jarayonlar va qoʻllanish konteksti bilan bogʻliq. Tildagi lugʻaviy maʼnosi va vazifasi jihatidan “soʻz” lugʻaviy maʼnoga ega boʻlgan, turli grammatik vazifalarni bajarishga qodir boʻlgan, tilda asosiy qurilish bloki boʻlib xizmat qiluvchi tilning minimal birligi sifatida taʼriflanadi. Terminlarni kognitiv idrok etish “maʼno tashuvchi” va “atrof-olamni turkumlash va konseptuallashtirish vositasi” maʼnolari bilan bogʻliq. “Soʻz” – “maʼno tashuvchi”, “atrof-olamni tasniflash va konseptuallashtirish vositasi” maʼnosidan tashqari aloqa va munosabatlarni ifodalash vositasi sifatida ham qoʻllanadi. Aloqa va munosabatlarni ifodalash vositasi nuqtayi nazaridan, “soʻz” termini obyektlar, hodisalar, jarayonlar, munosabatlarni ifodalaydi. Kognitiv jarayonlarni turkumlashtirish va mavhumlashni aks ettiradi va dunyo haqidagi bilimlarni tartibga solish va bu bilimlarni kommunikativ almashinuv vositasi sifatida qaraladi. Tilshunoslikka oid ishlarda “soʻz” ijtimoiy-kommunikativ vazifalar nuqtayi nazaridan ham oʻrganiladi. Xususan, terminlar, koʻpincha, ishontirish, vaʼda, donolik, salomlashish va boshqalarni ifodalash vositasi sifatida tahlil

obyekti bo'lib, o'zaro ijtimoiy munosabatlardagi ahamiyati va madaniy me'yorlar hamda qadriyatlar ifodalovchisi sifatida birinchi o'rinda turadi. "So'z" termin ma'nosidan metaforik va metonimik kengayib, lingvistik birlik doirasidan chiqib, ijtimoiy akt yoki harakatning ramziga aylanadi. O'zbek tilida "so'z" leksik birligining lingvistik termin sifatida mavjudligi bilan bog'liq kognitiv-metaforik jarayonlar nuqtayi nazaridan metafora va metonimik jarayonlarni aks ettiruvchi turli ma'nolar qayd etilgan. Kognitiv jarayonlar terminning lingvistik mazmunini va uning talqinini tashkil qiladi. Masalan, "so'z"dan foydalanishda metaforik kengayish ushbu termin bilan mavhum tushunchalar umumlashtirilgan hollarda kuzatilishi mumkin. Bundan tashqari, o'zbek lingvistik terminologiyasida "so'z" o'zining tildagi struktur element sifatidagi vazifasi prizmasidan kelib chiqib, gap va matnlar tuzish vositasi sifatida qaraladi.

O'zbek tilidagi "so'z" terminining lingvistik matnlarda namoyon bo'ladigan metaforik konsepsiyalari quyidagilar: ma'no tashuvchi (*So'z ma'no ifodalovchi asosiy vositadir; terminning leksik ma'nosi uning asosiy ma'nosi hisoblanadi; termin ma'noni o'z ichiga oladi; bu termin ko'p ma'nolarni qamrab olgan, termin ma'nosini saqlaydi*); kommunikatsiya vositasi (*Terminlar fikr almashishning asosiy vositalaridir; terminlar orqali odamlar o'z fikrlarini ifodalaydilar; terminlar – fikrlarni ifoda etish vositasi; terminlar orqali tushuntirish*); matn qurish elementi (*Terminlar jumla va matn qurishning asosiy elementlari; har bir termin matni qurishda o'z o'rniga ega; terminlardan iborat matn*); valyuta (*O'zlashgan terminlar til boyligini oshiradi; terminlar tilning leksik xazinasini boyitadi*); nutq unsuri (*Nutq terminlardan tashkil topgan; termin nutqning kichik birligi hisoblanadi*); организм (*Yangi terminlar paydo bo'ladi, rivojlanadi va ba'zan yo'qoladi; terminlarning hayotiy sikli; terminlar o'zgaradi*); tafakkur jarayoni mahsuli (*Terminlar fikrlash jarayonining mahsulidir; terminlar ong faoliyati natijasi sifatida yuzaga keladi; terminlar ongda shakllanadi va nutqda kodlanadi; terminlar fikrlash jarayonining mahsuli; terminlar aql va tilning uyg'unligida yaratiladi*). Umuman olganda, o'zbek tilidagi "so'z" terminining ko'pma'noliligi til, kognitiv jarayonlar va kontekst o'rtasidagi kuchli bog'liqlikni aks ettiradi.

Rus tilidagi "слово" termini ingliz va o'zbek tillaridagi uning muqobillari kabi lingvistik terminologiyadagi asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, so'zlarning tildagi turli funktsiya va xususiyatlarini aks ettiruvchi ko'plab ma'nolarga ega. So'z fikrlash predmeti bilan to'g'ridan to'g'ri bog'lanish va voqelikni umumlashtirgan holda aks ettirish vositasi sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazardan, "слово" terminining ta'rifi tilga kognitiv yondashuvga mos keladi, bunda terminlar tajribani turkumlash va konsepsiyalash uchun asosiy birlikdir. So'zlar, bir tomondan, voqelikni aks ettirsa, ikkinchi tomondan, ular til egalari tomonidan dunyoni idrok etishni tartibga solib, voqelikning noyob kognitiv xaritalarini shakllantiradi. So'zni jumlaning potensial minimumi sifatida ko'rib chiqish uning sintaktik avtonomligini va sintaktik strukturaning mustaqil birligi sifatida ishlash imkoniyatini ko'rsatadi. Shuni ta'kidlash kerakki, terminning sintaktik avtonomligi nutq hosil qilish va idrok etishning kognitiv jihatini aks ettiradi, unga ko'ra terminlar murakkab xabarlarini yaratish uchun qurilish bloklari bo'lib xizmat qiladi. So'zlarni morfologik tuzilishi, semantik turi va boshqa mezonlarga ko'ra tasniflash ko'pchilik lingvistik

tadqiqotlarning asosini tashkil etadi. Soʻzlarning morfologik xilma-xilligi lingvistik shakllarning hosil boʻlishi va idrok etilishining kognitiv jarayonlari bilan bogʻliq boʻlsa, terminlarning semantik xilma-xilligi inson tajribasi va bilimining turli tomonlarini tavsiflaydi. Soʻzlarning fonetik tipi va sintaktik vazifasiga koʻra tasnifi tilning tovush tomonining ahamiyati va gap tuzilishida soʻzlarning oʻrni bilan belgilanadi. Fonetik va sintaktik jihatlar nutq faoliyatining ham fiziologik, ham kognitiv mexanizmlarini, jumladan, talaffuz, idrok etish va sintaktik ishlov berish mexanizmlarini aks ettiradi. Stilistik va sotsiolingvistik farqlash: soʻzlarning stilistik farqlanishi va ularning adabiy tilga munosabati rus lingvistik adabiyotida muhim oʻrin tutadi. Bizningcha, soʻzlarning stilistik va sotsiolingvistik farqlanishi tilni idrok etish va qoʻllash bilan bogʻliq bilish jarayonlarining madaniy, ijtimoiy va individual omillar taʼsirida qanday shakllanganligi bilan belgilanadi.

Rus lingvistik terminologiyasida “слово” termini uning koʻpmaʼnoliligini aks ettiruvchi bir qator metaforik konsepsiyalarga ega: maʼno tashuvchisi (*Слово содержит множество значений; это слово вмещает в себя разные нюансы; слово является хранилищем смысла*); kommunikatsiya vositasi (*Слова служат для передачи идей; слово – средство выражения мысли*); organizm (*слова рождаются, живут и умирают, новые слова появляются, старые исчезают; слово эволюционирует*); matn qurilishi unsuri (*Слова – строительные блоки предложений; каждое слово важно для структуры текста*); valyuta (*Заимствованные слова обогащают язык; слово имеет свою ценность*); kod (*Слово как код для передачи информации; язык – система кодов, где слово играет ключевую роль; слова кодируют и декодируют наши мысли*); til tizimi belgisi (*Слово – это знак, имеющий определенное значение в языковой системе”; “слова – знаки, закрепленные за понятиями*); nutq faoliyati mahsuli (*Слово – результат мышления; слова формируются в процессе речевой активности; через слово реализуется мысль*). Umuman, “слово” terminining koʻpmaʼnoliligi va uning turli kontekstlarda namoyon boʻlishi til, tafakkur va kontekstning oʻzaro taʼsiri, shuningdek, soʻzlarning inson bilish jarayonlaridagi roli bilan bogʻliq.

“Soʻz” (inglizcha “word”, oʻzbekcha “soʻz”, ruscha “слово”) terminining koʻpmaʼnoliligi tahlili uning ingliz, oʻzbek va rus tillarida koʻpmaʼnolilik asosidagi kognitiv modellarning umumiy xususiyatlarini ham, farqlarini ham aniqlash imkonini berdi. Taqqoslanayotgan tillarda oʻrganilayotgan termin koʻpmaʼnoliligining umumiy xususiyatlari konseptual funksiyadir: har uch tilda ham termin maʼno tashish va kommunikativ funksiyani bajarishga qodir boʻlgan tilning minimal birligi tushunchasini aks ettiradi. Boshqacha aytganda, terminning axborot va bilimlarni uzatish asosi sifatidagi universal vazifasi ochib beriladi. Oʻrganilayotgan tillarda terminning semantik maydonida leksik birliklarning morfologik va semantik moslashuvi ham umumiydir. Har bir tilda soʻz kognitiv jarayonlarni mavhumlashtirish va turkumlashtirish nuqtayi nazaridan turli shakllarda, shuningdek, kontekstga koʻra turli maʼnolarga ega boʻlishi mumkin. Maʼnoning metaforik va metonimik kengayishi ham “слово” terminining umumiy xususiyatini ifodalaydi: ingliz, oʻzbek va rus tillarida termin aloqa, gʻoyalar, tushunchalar, ijtimoiy holat, harakat kabi kengroq hodisa va konsepsiyalarni belgilash maqsadida maʼno metaforik va metonimik kengayishi kuzatiladi. Maʼnoning kengayishi mavhum tushunchalarni

